

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH TIZIMINING AHAMIYATI

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toyloq
tumanlararo sudi sudyasi
G'afurov Nodirjon Nazrullayevich

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurash tizimining ahamiyati va so'nggi yillarda bu borada respublikamizda olib borilayotgan ishlar atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli sud, sun'iy intellekt, kiber huquq.

Korrupsiya mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlar yoki o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab, qonunga xilof ravishda foydalanishi, ya'ni moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunbuzarlik sodir etishidir. Korrupsiya har qanday davlat va jamiyat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi global muammodir. U butun insoniyatga, barcha jamiyatlar asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarba beradi, qonun ustuvorligini buzadi. Yurtimizda so'ngi yillarda ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilganligi shubxasizdir. Keyingi yillarda davlat organlari faoliyatining ochiqqligi, shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi, ushbu sohada qonunchilik asoslari takomillashdi. Korrupsiyaning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotga ta'siri juda katta. U davlat boshqaruvining samaradorligini pasaytiradi, iqtisodiy rivojlanishni to'xtatadi, aholi ishonchini yo'qotadi va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish har qanday davlat uchun ustuvor vazifalardan biridir. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimi – bu davlat organlari, jamoatchilik tashkilotlari va fuqarolar o'rtasidagi hamkorlik asosida korrupsiyani kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Korrupsiyaga qarshi kurash huquqiy davlat barpo etish, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, jamiyatda ishonchni oshirish, siyosiy barqarorlikni ta'minlash va davlat boshqaruvi

samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimi — bu nafaqat jinoyatga qarshi chora, balki davlatning barqarorligi, iqtisodiy rivoji, ijtimoiy adolat va fuqarolar ishonchining asosi hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining o'ziga xos xususiyatlari sifatida korrupsiyaga qarshi kurash uchun mustahkam qonunchilik asoslarini yaratish, davlat organlari va muassasalarining faoliyatida shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashda nazorat organlari o'z funksiyalarini samarali bajarish, korrupsiyaga qarshi kurashda jamiyatda keng tarqalgan ta'lim dasturlari orqali yosh avlodni korrupsiya haqidagi tushunchalar bilan tanishtirish, axloqiy qadriyatlarni oshirish, fuqarolik jamiyatining faolligi va ommaviy nazorat ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim rol kasb etishi, korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish hamda korrupsiya uchun qattiq sanksiyalar belgilanishi kerakligi kabilarni keltirish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan korrupsiyaga qarshi kurash tizimining o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan davlatimizda samarali ishlar amalga oshirilib, amaliyotga tadbiq etilmoqda deb bemalol ayta olamiz. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining ahamiyati yuqori bo'lganligi sababli mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini va mehnat sharoitlarini yaxshilash, sud-huquq tizimini isloh qilish, inson huquqlarini himoya qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish, jamiyatda ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha keng ko'lamli amalga oshirilayotgan amaliy ishlar haqida to'xtalib o'tamiz.

Mamlakatimiz ushbu o'tkir muammoning oqibatlarini chuqur anglagan holda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan yaqin hamkorlik qilib kelmoqda. Shuningdek, ushbu illatga qarshi kurashish borasida huquqiy va institutsional islohotlar tizimli amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC) hamda IHTT ning Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo uchun Korrupsiyaga qarshi kurash tarmog'i (KQT) doirasidagi asosiy submintaqaviy tashabbus bo'lgan Korrupsiyaga qarshi

kurash bo'yicha Istanbul harakat rejasining a'zosi hisoblanadi. O'zbekiston yaqinda Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha huquqni muhofaza qilish organlarining Global operativ tarmog'iga a'zo bo'ldi. Qayd etilgan va boshqa chora-tadbirlar mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashni yaxshilashga xizmat qildi. Buni mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rni yaxshilangani ham tasdiqlaydi. Xalqaro boshqaruv ko'rsatkichlariga ko'ra, O'zbekiston so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashni yaxshilagan. So'nggi yillarda mamlakatimiz Transparency International's Corruption Perceptions Index (CPI) reytingida o'z o'rnini 42 pog'onaga yaxshilagan. Birgina 2023-yilning o'zida mamlakat o'z reytingini 5 pog'onaga yaxshiladi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Buni so'nggi yillarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar misolida mazkur sohada qabul qilingan konseptual me'yoriy hujjatlar asosida baholash mumkin. Mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashning samarali mexanizmi, jumladan, huquqiy baza va institutsional asos yaratilgan. Davlat va jamiyat qurilishining barcha tarmoqlarida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan 70 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazkur islohotlarni amalga oshirishda mustahkam asos bo'ldi. Bundan tashqari 2022-yilda qabul qilingan "Davlat xizmati to'g'risida"gi qonunga ko'ra, davlat xizmatchilariga sovg'alar qabul qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, xorijiy banklarda hisob raqamlarini ochish va chet elda ko'chmas mulk sotib olish taqiqlanadi. Shuningdek, davlat xizmatchilarining mol-mulki va daromadlarini majburiy deklaratsiya qilish tizimi joriy etilgan. Shuningdek, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish tartiblari hamda davlat organlarida "komplayens nazorati" tizimi joriy bosqichma bosqich tashkil etilmoqda. 2017-yilda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunning 7-moddasiga muvofiq "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlariga 2020-yilda tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Vazirliklari, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi va Bosh

prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti kiradi. Hozirgi vaqtda mazkur organlar o'z vakolatlari yuzasidan korrupsiya qarshi kurashishda samarali ishlarni amalga oshirib kelmoqda deb ayta olamiz. Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Milliy kengash va uning hududiy organlari mavjud bo'lib, ular barcha tegishli institutlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish va korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish uchun mo'ljallangan. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda har bir me'yoriy-huquqiy hujjat "korrupsiyadan holi qonunchilik" tamoyili asosida ishlab chiqilib, korrupsiyaga qarshi kurashish amaliyotida tizimli profilaktika chora-tadbirlari kuchaytirilib, fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlarini yaratish orqali jamoatchilik nazorati ta'minlanmoqda. Bundan korrupsiya qarshi tizimli ravishda kurashish jamiyatimizda korrupsiyani bartaraf etish yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida bo'lib o'tdi. Yig'ilishda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha qilingan ishlarga baho berilib, kelgusi vazifalar belgilab berildi. Mazkur yig'ilishda Davlatimiz rahbari o'z nutqida jamoatchilikka murojaat qilib, korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtdoshimizning vijdon ishi ekanini hamda hammamiz yagona kuch bo'lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san'at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga "jamiyat tanasidagi saraton" sifatida qarashi kerakligini takidlab o'tdi. Bundan esa korrupsiya qarshi kurash muhim ahamiyat kasb etib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda 2025-yil 21-apreldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi 71-son farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada kuchaytirish, shaffoflikni oshirish, jamoatchilik ishtirokini ta'minlash va davlat xizmatlarida halollik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Yangi nazorat mexanizmlari, raqamlashtirish va xalqaro hamkorlikni

rivojlantirish bu islohotlarni amalga oshirishda asosiy vosita bo'lib, korrupsiyani butunlay yo'q qilishga qaratilgan muhim qadamdir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali moliyaviy, huquqiy va institutsional mexanizmlarini yaratish yo'li o'z samarasini berdi desak bo'ladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, korrupsiyaga qarshi kurash faqat bir necha yillik vazifa emas. Bu to'xtovsiz jarayondir va O'zbekiston hukumati bu boradagi xalqaro standartlarga muvofiq korrupsiyaga qarshi islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlash bo'yicha yangi qadamlarni qo'yishga intilmoqda. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tub mohiyatga ega bo'lib, tizimli va institutsional yondashuvga asoslanmoqda. Ularning asosiy o'ziga xos jihatlari — davlat organlarining ochiqligi, xalqaro standartlarga muvofiqlik, jamoatchilik ishtirokining kengayishi va yangi texnologiyalarning joriy qilinishidir. Bu yo'nalishdagi islohotlar mamlakatda adolatli jamiyat barpo etish, iqtisodiy taraqqiyotga erishish va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni.(2019) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 1-son, 2-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 2019-y., 2-son, 47-modda)